

## AXBOROT XATI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 2-mart kungi «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid Davlat dasturi to‘g‘risida»gi Farmonida ko‘zda tutilgan vazifalarni ijrosini ta'minlash maqsadida “Academic Research” MChJ tomonidan ta'sis etilgan “**Academic Research in Educational Sciences (ARES)**” ilmiy jurnalining (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalarni rivojlantirish agentligining 1365-sonli Guvohnoma hamda ISSN 2181-1385, [www.ares.uz](http://www.ares.uz) veb sayti) **3-tom 8-soni** uchun maqolalar qabuli e’lon qilinadi.

Jurnal [Google Scholar](#), [Cyberleninka](#), [ResearchBib](#), [Internet Archive](#), [SJIF](#), [Index Copernicus](#), [IJIFACTOR](#), [DRJI](#), [Cite-Factor](#), [SIS](#), [GIF](#), [ASI](#), [ROAD](#) va [UIF](#) xalqaro bazalarida indekslanadi. ARES jurnali [Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor](#) (*OAK tomonidan tavsiya etilgan bazalarning 16-raqamida*) xalqaro indeksatsiya bazasida **0.89**, [Scientific Indexing Services](#) (*OAK 19-raqamida*) xalqaro indeksatsiya bazasida **1.12**, [Scientific Journal Impact Factor](#) (*OAK 23-raqamida*) xalqaro indeksatsiya bazasida **5.759**, [Universal Impact Factor](#) (*OAK 43-raqamida*) xalqaro indeksatsiya bazasida **6.1** ball bilan e’tirof etilgan.

**Jurnalga quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha maqolalar qabul qiladi:**

1. Aniq fanlar
2. Tabiiy fanlar
3. Texnika fanlari
4. Pedagogika fanlari
5. Ijtimoiy-gumanitar fanlar
6. Tibbiyot fanlari

**Maqola mualliflariga eslatma:**

- Maqolalar **o‘zbek, rus, ingliz va tojik tillarida** qabul qilinadi;
- Maqolar 2022-yilning **5-avgustdan 31-avgust** kuniga qadar elektron shaklda Telegram: +998999123144 [@AcademicResearchLLC](#) telegram manziliga yoki [jurnalofares@gmail.com](mailto:jurnalofares@gmail.com) elektron pochtasiga yuborishingiz mumkin;
  - Yuborilgan ilmiy maqolalar tahrir hay'ati tomonidan ko‘rib chiqiladi va tahrirdan o‘tmagan, talablar bo‘yicha yuborilmagan maqolalar nashr etilmaydi;
  - Jurnalga professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar, iqtidorli talabalar maqola topshirishlari mumkin;
- Jurnalga qabul qilingan maqolalar **3 kun ichida jurnal web sayti ([www.ares.uz](http://www.ares.uz)) 3-tom 8-soni sahifasiga joylanadi** hamda **muallifga maqola havolasi taqdim etiladi**. Jurnalning to'plam shakli 2022-yil 5-sentabr kuni [www.ares.uz](http://www.ares.uz) vebsaytiga va [https://t.me/ares\\_uz](https://t.me/ares_uz) telegram kanaliga joylashtiriladi.

**Taqdim etiladigan maqolalarga qo‘yiladigan talablar:**

- Maqola xalqaro talab darajasidagi **IMRAD shaklida** yozilgan bo‘lishi lozim (1-ilovada namuna keltirilgan);
  - Maqolalar ilmiy jurnal yo‘nalishiga oid dolzarb mavzularda, ilmiy va tugallangan fikrlarga asoslangan, taklif va tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;
  - Maqola matnlari A4 hajmda, yuqorida va pastdan 2 sm, chapdan 2 sm, o‘ngdan 2 sm xoshiyaga ega bo‘lishi kerak;
  - Maqola matni Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 14 o‘lchamida, 1,15 intervalda bo‘lishi va 4-12 bet hajmda bo‘lishi lozim;
- Taqdim etilgan maqola qabul qilingandan so‘ng, bitta maqola uchun **200 000 so‘m to‘lov** olinadi. Jurnalda e’lon qilingan maqolaga [DOI raqami](#) olishni istagan mualliflar qo‘srimcha 50 000 so‘m to‘lov qilishlari kerak bo‘ladi. To‘lovni **\*880\*043218\*SUMMA# Click** so‘rovi orqali yuborishingiz mumkin (yoki to‘lov uchun internet manzil: <https://indoor.click.uz/pay?id=043218&t=0> ).



(to‘lov uchun QR kod)

To‘lovni tasdiqlash uchun **to‘lov skrinshotini telegram manziliga** yuborishingiz so‘raladi.

Maqola talablariga moslangan quyidagi tayyor shakldan foydlanish mumkin (tavsiya etiladi):

**MAQOLANING NOMI**

**(14 O'LCHAMDA QALIN, KATTA HARFLI FORMATDA O'RTADA JOYLASHISHI  
LOZIM: ILTIMOS, BU SHAKLNI O'ZGARTIRMANG)**

**Muallifning ismi, sharifi, familiyasi**

Ish joyi

Elektron pochta manzili

**ANNOTATSIYA**

Annotatsiya berilgan shakl va ko'rinishda bo'lishi lozim. Iltimos, bu shaklni o'zgartirmang. Annotatsiya 150-200 bosma belgi hamda 5-10 kalit so'zlardan iborat bo'lishi lozim. Annotatsiya (ingliz tilida ABSTRACT) va kalit so'zlar (keywords) xalqaro tizimlarda indekslanishi uchun ingliz tilida ham berilishi zarur.

**Kalit so'zlar:** bu yerga 5-10 so'zdan iborat maqoladagi asosiy urg'u olgan atamalarni yozish maqsadga muvofiq.

**TITLE OF PAPER**

**(IN THE CENTER USING CAPITAL LETTERS, FONR SIZE 14 AND BOLD  
IN BLACK COLOUR: PLEASE DO NOT CHANGE THIS FORMAT)**

**ABSTRACT**

Abstract should be given here in the same font and format as given here. Please do not change the format. Abstract should be between 150-200 words followed by 3-5 keywords.

**Keywords:** Please include 5-10 keywords here.

**KIRISH (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman  
bosma shaklda)**

Bu bo'limda maqolaning kirish qismi yoziladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Kirish qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (KATTA  
HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Bu bo'limda ishning adabiyotlar tahlili va metodologiyasi yoritiladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

## **NATIJALAR**

Bu bo'limda maqolaga oid bo'lgan natijalar (jadvallar, grafiklar, diagrammalar v.h.) berilishi mumkin. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Natijalar qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi. Jadvallar uchun 10 o'lchamni ishlatish masadga muvofiq. Jadval, grafik va boshqa shunday shakllar berilgan satrning o'rtaida 1-jadval/1-diagramma va hokazo kabi nomlanishi lozim.

### **MUHOKAMA (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Ushbu bo'limda natija va muammolar muhokamasi bayon etiladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Muhokama qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

### **XULOSA (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Bu bo'limda maqolaning tugallangan xulosasi keltiriladi. 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda, alohida xatboshiga ajratilgan holatda. Xulosa qismida kichik sarlavhalar mavjud bo'lsa, 14 o'lchamda, qalin, Times New Roman bosma yozuvida, alohida xatboshiga ajratib yoziladi.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES) (KATTA HARFLARDA 14 o'lchamda, Times New Roman bosma shaklda)**

Adabiyotlar ro'yxati uchun 14 o'lcham, Times New Roman bosma shakl, alohida xatboshiga ajratilgan holat ishlatiladi. Mualliflar adabiyotlar ro'yxatini shakllantirishda "Amerika Psixologiya Assotsiatsiyasining nashr qilish qo'llanmasi" (The Publication Manual of the American Psychological Association)ga alifbo tartibiga amal qilishlari lozim. Adabiyotlar ro'yxatida bir maqola uchun bir muallifning 30% dan ortiq ilmiy ishlardan iqtibos keltirilmasligi tavsiya etiladi.

Maqola xalqaro bazalarda indekslanishi uchun o‘zbek tilida berilgan adabiyotlar ro‘yxati ingliz tilida (REFERENCES) alohida xatboshida keltirilishi zarur. Iqtibos keltirilgan adabiyotning tartib raqami maqola matnida keltirilgan [raqam] bosma belgisidagi tartib *raqamga* mos kelishi lozim. Quyida turli adabiyotlar uchun namunalar keltiriladi:

### **Kitoblar**

Jamolov, J. (2012). *Chet til o'qitish metodikasi*. O'qituvchi.

### **Jurnallar**

Kholikova, N. (2020). Poetic Features of Uzbek Poetry of the National Awakening Period. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04(84), 615-623.

### **Vebsayt**

Barduhn, S. (2014). *Developing cross-cultural awareness in the monolingual classroom*. Teaching English, British Council, BBC.  
<https://www.teachingenglish.org.uk/article/developing-cross-cultural-awareness-monolingual-classroom-0>

### **Ikki va undan ortiq mualliflar**

Mardonov, S., Khodjamkulov, U., & Botirova, S. (2020). The Need to Educate Young People with the Spirit of Patriotism in the Context of Globalization. *Journal of Critical Reviews*, 7(12), 243-247.

\*Bu shaklda maqola yozish birinchidan, mualliflarimizni xalqaro reytinglardan o‘rin olgan ilmiy jurnallarga maqola chiqarishga tajriba bo‘lsa, ikkinchidan, muallif fikrlarini tartib bilan ketma-ketlikda o‘quvchiga yetqazishga xizmat qiladi.

Agar Siz maqolangizni yuqorida ko‘rsatilgan shaklga tushirishga qiyalsangiz jurnal mas’ullariga murojaat qilishingiz mumkin. Sizning murojaatingizdan biz faqatgina xursand bo’lamiz.

## **NAMUNA**

1-ilova

### **DOGMATIZM VA UNING OQIBATLARI**

Valijon Valijonovich Valiev  
ishlaydigan tashkilot nomi va lavozimi  
valiev.v@mail.ru

#### **ANNOTATSIYA (АННОТАЦИЯ / ABSTRACT)**

**Annotatsiya:** Annotatsiya o'rtacha 150-200 bosma belidan iborat bo'lishi lozim. Agar maqola o'zbek,tojik va rus tilida yozilgan bo'lsa, Annotatsiyadan keyin, albatta, ingliz tilida **ABSTRACT** beriladi.

**Kalit so'zlar:** Kalit so'zlar o'rtacha 5-10 so'zdan iborat bo'lishi lozim.

Maqola xalqaro **IMRAD** talablari asosida ya'ni 1) kirish, 2) Adabiyotlar tahlili va metodologiya, 3) Muhokama, 4) natijalar, 5) xulosa va bibliografiya (References) qabul qilinadi.

#### **KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)**

Kirish, kirish.

#### **ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)**

Materiallar va metodlar, materiallar va metodlar [1] (*iqtibos, ssilka*)

#### **NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)**

Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (*iqtibos, ssilka*)

#### **MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)**

Muhokama va natijalar, muhokama va natijalar [2] (*iqtibos, ssilka*)

#### **XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)**

Xulosa, xulosa.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)**

1. Akhatov, L., Madalimov, T., & Xaytmetov, R. (2020). The Spiritual Connection of Sufism and Tolerance in the Works of Jami. *International Journal of Multidisciplinary Research and Publications*, 2, 1-4.
2. Xaytmetov, R. (2020). Immanuil Kant falsafasida olam va odam muammosi. *Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi*, 5(2), 71-74.